

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ASHUROVA NIGINA ALIMDJANOVNA

**INGLIZ TILIDA YANGI AVLOD DARSLIK VA O‘QUV
QO‘LLANMALARINI YARATISH MEXANIZMLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Pedagogical sciences**

Ashurova Nigina Alimdjanovna

Ingliz tilida yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish mexanizmlari... 3

Ашурова Нигина Алимджановна

Механизмы разработки учебников и учебных пособий нового поколения
на английском языке 27

Ashurova Nigina Alimdjanovna

Mechanisms For The Organization Of New Generation Textbooks And
Manuals In English..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ASHUROVA NIGINA ALIMDJANOVNA

**INGLIZ TILIDA YANGI AVLOD DARSLIK VA O‘QUV
QO‘LLANMALARINI YARATISH MEXANIZMLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.Phd/Ped1333 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sobirova Gulnoza Sadikovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Abbasova Nargiza Kabilovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu@gmail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kunida tarqatildi.
(2025-yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

L.T.Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori,
professor

A.B.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc),
dotsent

K.Sh.Muradkasimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan bugungi kundagi o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari va davlatlararo savdo-iqtisodiy, ilmiy hamda madaniy aloqalarning kengayishi natijasida turli soha mutaxassislarini tayyorlash, shu bilan birga chet tilida o'quv jarayonini samarali rivojlantirishga ko'maklashuvchi darsliklar, ilmiy-uslubiy va o'quv qo'llanmalar sifatini oshirish sohasida ta'lim sifatini oshirish muammosi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Jahonda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yangi avlod ingliz tili darsliklarini ishlab chiqishda individual ta'lim trayektoriyalariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish tezligiga mos keluvchi moslashtirilgan o'quv materiallari ishlab chiqilmoqda. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va til o'rganish jarayonida faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi, ta'lim tizimiga joriy qilinayotgan innovatsion yondashuvlar, samarali va sifatli ta'lim asosi sifatida o'quv qo'llanmalarni, ayniqsa, o'quv adabiyotlarini modernizatsiya qilishning yangi usullarini joriy etishni talab qilmoqda. Bugungi kungacha to'plangan ijobiy xorijiy tajriba asosida yaratilayotgan darsliklar foydalanuvchilari sonini oshirish va ularni keng miqyosda ommalashtirish maqsadida Global Book Distribution Organizations (Butun Jahon Kitoblarni Tarqatish Tashkiloti) va The International Book Bank (Xalqaro Kitob Banki) tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Dunyoda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, multimedia va interaktiv resurslardan foydalanish asosida yangi avlod darsliklarini yaratish bugungi davrning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar yaratish bo'yicha bir qator universitetlar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. National University of Singapore (NUS), Humboldt University (Germaniya), Sorbonne University (Fransiya) va boshqa yetakchi universitetlarda ingliz tili darsliklarini ishlab chiqishda raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'qitish hamda til o'rgatish jarayonida virtual va kengaytirilgan reallikdan foydalanish kabi innovatsion yondashuvlar ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oxford University Press va Cambridge University Press kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan ingliz tili darsliklarini ishlab chiqishda kommunikativ metodika, task-based learning (vazifa asosida o'qitish), gamifikatsiya va raqamli ta'lim uslublariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Cambridge University tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ingliz tilini o'rganish jarayonida mobil ilovalar, sun'iy intellekt yordamida moslashtirilgan mashqlar hamda real hayotiy kontekstda o'rganish usullari o'quvchilarning til kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar ingliz tilidagi yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda texnologik yondashuvlar, psixolingvistik tadqiqotlar hamda interaktiv ta'lim metodlarining ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda yangi avlod darsliklar va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda elektron ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida yangi avlod o'quv adabiyotlarini takomillashtirishning huquqiy asoslarini yaratish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda"¹. Ta'limning asosiy vazifasi — shaxsni har tomonlama rivojlantirish, jamiyatda muvaffaqiyatli va uyg'un integratsiyalashuvi uchun zarur bo'lgan bilim, kasbiy ko'nikma va qadriyatlar bilan ta'minlashdan iborat. Ta'lim tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va madaniy tushunishni rivojlantirishi kerak. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlaridan biri — ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish, hamda o'quv adabiyotlari mazmunini tubdan takomillashtirishdir. Chunki darslik va o'quv adabiyotlar uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi va talabalar uchun zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2018-yil 10-oktabrdagi PQ-816-son "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida chet tillarni o'rganishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, ushbu soha bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot davomida chet til o'qitish metodikasi faniga salmoqli hissa qo'shgan respublikamiz olimlaridan J.J.Jalolov, L.T.Ahmedova, G.T.Maxkamova, I.M.Tuxtasinov, S.A.Ziyayeva, U.U.Jumanazarov, F.M.Rashidova, G.G.Kadirova, M.X.G'ulomova,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 30-oktabr kuni ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi. Kirish rejimi: <https://president.uz/ru/lists/view/3924>. [Murojaat etilgan sana: 14.04.2025].

G.U.Shamuratova, N.Taylaqov, U.U.Sattarov, L.J.Jalilovalarning ishlari tahlil qilingan².

An'anaviy darsliklar yaratish, chet tilida elektron darslikni ishlab chiqish masalalari, oliy o'quv yurtlari uchun zamonaviy autentik chet tili darsliklari yaratish bo'yicha I.L.Bim, A.Z.Ibatova, V.I.Baydenko, Yu.B.Vasenev, M.N.Vyatutnev, A.A.Verbitskiy, V.V.Kraevskiy, A.V.Xutorskoy, R.P.Milrud, I.M.Osmolovskaya, N.I.Zamerchenko, A.V.Kuznetsov, O.A.Kravtsova, E.B.Yastrebovalar o'z tadqiqot ishlari olib borishgan³.

Darsliklarning ma'lum bir tuzilishi, izchilligi va mantiqiy ketma-ketligini ta'minlash, mashqlarni ishlab chiqish masalalari bilan O.E.Lomakina, G.K.Selevko, A.R, Arutyunov, A.M.Novikov, E.I.Passov, E.S.Kuznetsova, A.F.Rogalev, P.A.Sidorenkolar shug'ullanganlar⁴.

² Jalolov J.J. Chet tilni o'qitish metodikasi. – T., 2012. – 431 b.; Axmedova J.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Махкамова Г. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. – Т., 2010. – 208 с.; Тухтасинов И.М. Возможности применения инновационных технологий в переводе художественных текстов.: Filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendentsiyalar va rivojlanish omillari. – Toshkent, 2020 yil. 1 may. Tadqiqot 2020. – 421 b.; Зияева С. А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку: Автореф. дисс....докт. пед. наук. – Ташкент, 2020. – 72 с.; Jumanazarov U.U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. doktori avtoreferati. – Jizzax, 2021. – 58 b.; Rashidova F.M. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida CEFRni tatbiq etishning kontseptual-metodik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida): dis. ... ped. f. d., – Toshkent, 2017. – 67 b.; Кадырова Г. Г. Конкретные дидактические принципы обучения иностранному языку для повышения продуктивности обучения школьников и студентов. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, т. 1, вып. 2, февраль 2023 г. С. 16–22.; Gulyamova M.H. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 45 b.; Шамуратова Г.Ю. Синергетический подход как форма многовариантности в образовательном процессе. – Текст: непосредственный. Молодой ученый. – 2017. – № 22 (156). – С. 204.; Taylaqov N. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida). Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent: 2006. – 342 b.; Sattarov U.U. Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida masofaviy o'qitishda yangi avlod o'quv adabiyotlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Samarqand: 2022. – 172 b.; Жалилова Л.Ж. Практическая методика обучения иностранному языку: учебное пособие. Л.Ж. Жалилова. – Бухара: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2023. – 53 с.

³ Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. М.: Наука, 2007. – 288 с.; Ибатова А.З. The methodology for English textbooks organizing in higher educational establishments. – Revista ESPACIOS - ISSN 0798 1015. Vol. 38 (Nº 45). Año 2017. – С. 31-34; Байденко В.И. Новые стандарты высшего образования: методологические аспекты. Высшее образование сегодня. – 2007. – № 5. – С. 4–9; Васенёв Ю.Б. Организация и управление учебным процессом вуза при переходе на ФГОС ВПО нового поколения: Учеб. пособие. – СПб., 2007. – 244 с.; Вятютнев М. Н. Теория учебника русского языка как иностранного (методические основы). – М.: Рус. яз., 1984. – 144 с.; Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход: Метод. пособие. – М.: Высш. шк., 1991. – 207 с.; Краевский В.В., Хуторской А.В. Основы обучения: дидактика и методика: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 352 с.; Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка: English teaching methodology: учеб. пособие. – М.: Дрофа, 2005. – 253 с.; Осмоловская И.М. Учебники нового поколения: поиск дидактических решений. Отечественная и зарубежная педагогика. – 2014. – № 4 (19). – С. 45-53.; Замерченко Н.И., Кузнецов А.В. Модель электронного учебника по иностранному языку нового поколения в условиях введения ФГОС и профессионального стандарта педагога. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2018. – № 1. Ч. 2. – С. 417–419; Кравцова О.А., Ястребова Е.Б. Современный аутентичный учебник иностранного языка для вуза: проблемы и пути решения. – Филологические науки в МГИМО. 2019. 18(2). С. 48–57.

⁴ Пассов Е.И., Кузнецова Е.С. Формирование лексических навыков: Учебное пособие. – Воронеж: НОУ «Интерлингва», 2002. – 40 с.; Рогалев А.Ф. Основы лингвистических знаний (задания, упражнения, тесты): пособие / Рогалев А. Ф. М-во образования РБ, Гом. гос. ун-т им. Ф. Скорины. – Гомель: ГГУ им. Ф. Скорины, 2014. – 194 с.; Сидоренко П.А. Методика обучения студентов технического вуза монологической речи на английском языке в ситуации профессионального общения: дис.... канд.пед.наук. - СПб.: РГПУ, 2003. - 243 с.

Xorijda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy uslubiy tamoyillar va texnologiyalar, ingliz tilini o'rgatish mashqlar tizimlari bo'yicha, kasb-hunar ta'limida qo'llaniladigan EFL (ingliz tili chet tili sifatida) darsliklarini baholash kabi masalalar J.Harmer, J.C.Richards, T.S.Rogers, A.Cunningsworth, L.E.Sheldon, J.S.Chall va S.Conard tomonidan o'rganilgan⁵.

O'quv adabiyotlar, darsliklar va mashqlar tizimini ishlab chiqish faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, oliy ta'lim muassasalarida til o'qitishga qaratilgan o'quv adabiyotlar muammolari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tililar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Filologik oliy o'quv yurtlarida chet tilini integrallashuv orqali o'qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi til o'qitish fakultetlarining 2-kurs talabalari uchun sinergetik yondashuv asosida darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

darslik va o'quv qo'llanmalarni an'anaviy va elektron shaklda yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, shuningdek, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar turlari, hamda multimedia manbalarini o'rganib chiqish;

"Xorijiy til va adabiyot: (ingliz tili)" va "Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)" yo'nalishlaridagi til o'qitish fakultetlarida o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish muammolari holatini o'rganish, ingliz tilidagi darslik va o'quv qo'llanmalarini tahlil qilish hamda ishlab chiqish mexanizmlarini takomillashtirish;

Xorijiy til va adabiyot: (ingliz tili)" va "Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)" fakultetlari uchun darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish bosqichlarini aniqlash va asoslash, shuningdek ularning samaradorligini baholash parametrlarini ishlab chiqish;

Xorijiy til va adabiyot: (ingliz tili)" va "Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)" fakultetlari talabalari uchun namunaviy, jahon talablariga javob beradigan o'quv qo'llanma ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali tekshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xorijiy til va adabiyot: (ingliz tili)" va "Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)" fakultetlarining 2-kurs talabalari uchun ingliz tili bo'yicha kompleks xarakterdagi o'quv qo'llanmani ishlab chiqish jarayoni tanlangan.

⁵ Harmer Jeremy. The Practice of English Language Teaching: 3rd edition. – Longman.: 2001. – 384 p.; Jack C. Richards and Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching: Third Edition.: 2014 416-P., Cunningsworth A. Evaluating and selecting EFL teaching materials. London: Heinemann // www.academia.edu; Sheldon L.E. ELT Textbooks and Materials: Problems in Evaluation and Development. London: Modern English Publications // www.teachingenglish.org.uk; Chall J.S. and S. Conard. Should textbooks challenge students? The case for easier or harder books. New York: Teachers college press. – 1991.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarida darslik va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish shakllari, mexanizmlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy tilni o'qitishda integral pedagogik texnologiyalarni sinergetik asosda uyg'unlashtiruvchi, madaniy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan multimodal o'quv modeli strukturaviy-kontekstual o'zaro integratsiya, moslashuvchanlik va kognitiv interfaollik kabi didaktik imkoniyatlar asosida ishlab chiqilgan;

intersub'yektiv idrok asosida qurilgan va epistemologik jihatdan integratsiyalashgan didaktik ta'minotning samaradorligi transformatsion o'quv konstruksiyasi sifatida talabalar ongida reflektiv hamda ijtimoiy faol tafakkur mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi chet tilidagi o'quv qo'llanmalarining besh komponentli funksional integral tuzilmani ishlab chiqish orqali isbotlangan;

til o'qitishga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarini baholash mezonlari "Country Study" moduli uchun yaratilgan o'quv konsepsiyasini diskursiv muloqot modeliga moslashtirish, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiruvchi krossmadaniy kontentdan foydalanish hamda tarkibiga ijtimoiy-kognitiv fikrlash, semantik strukturalash va pragmatik moslashuv komponentlarini kognitiv interfaollik va kontekstual reprezentatsiya asosida funksional jihatdan integratsiya qilish orqali takomillashtirilgan;

lingvodidaktik komponentlar orqali predmetli til muhitini virtual tarzda konstruksiyalovchi, madaniyatlararo mediatsiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi elektron o'quv vositasi asosida, xorijiy tilni real kommunikativ makon sifatida anglash imkoniyatini ta'minlaydigan kognitiv-multimodal modellashtirish texnologiyalari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

chet tillarda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini integratsiyalashga qaratilgan "Country study" o'quv qo'llanmasi nashr etilgan;

til o'qitish fakultetlari talabalari uchun madaniyatshunoslikni rejalashtirishda yosh o'qituvchilarning kasbiy mahoratini qo'llab-quvvatlovchi "Country Study and Intercultural Communication" (Teacher's Book) o'quv-metodik qo'llanmasi nashr etilgan;

talabalarining kelajakdagi faoliyatida zarur bo'lgan ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish uchun "Country Study and Intercultural Communication" veb-illovasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv, metod va nazariy qoidalarining rasmiy manbalardan olingani, tadqiqot va o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslangani,

xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik materiallarida uzviylikni ta'minlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini motivatsiyalashni rivojlantiruvchi, shuningdek, til o'qitish fakultetlari talabalarining malakasini rivojlantirishga e'tibor qaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalarning bakalavrlar tayyorgarligiga malakaviy talablarni takomillashtirish, Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga oid darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, ta'lim muassasalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, chet tili o'qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarining nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarida, shuningdek, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilida yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish mexanizmlari bo'yicha olingan natijalar, ishlab chiqilgan metodik va amaliy tavsiyalar asosida:

xorijiy tilni o'qitishda integral pedagogik texnologiyalarni sinergetik asosda uyg'unlashtiruvchi, madaniy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan multimodal o'quv modeli strukturaviy-kontekstual o'zaro integratsiya, moslashuvchanlik va kognitiv interfaollik kabi didaktik imkoniyatlar asosida ishlab chiqilganligi xususidagi ilmiy-nazariy tavsiyalardan "Country study" o'quv qo'llanmasini, "Country Study and Intercultural Communication" elektron veb ilovasini yaratishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 359-son buyrug'iga asosan berilgan 359-089 raqamli nashr ruxsatnomasi, Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligining 2022-yil 11-avgustdagi DGU 18261-son ma'lumotnomasi). Natijada til o'qitish fakultetlari talabalarining materiallar, multimedia manbalari, veb-ilovalar resurslaridan mustaqil foydalanish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati mavjudligi tufayli chet tilidagi kommunikativ kompetensiya ko'nikmalarini yaxshilashga erishilgan;

intersub'yektiv idrok asosida qurilgan va epistemologik jihatdan integratsiyalashgan didaktik ta'minotning samaradorligi transformatsion o'quv konstruksiyasi sifatida talabalar ongida reflektiv hamda ijtimoiy faol tafakkur mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi chet tilidagi o'quv qo'llanmalarining besh komponentli funksional integral tuzilmani ishlab chiqish orqali isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan I-204-4-5 raqamli "Ingliz tili mutaxassisligi fanlari uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 17-yanvardagi 74/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan o'quv adabiyotlarining mazmun-mohiyati takomillashtirilgan hamda ushbu materiallar til o'qitish fakulteti talabalar kasbiy saviyasining barqaror o'sishi samaradorligini ta'minlashga yordam bergan;

til o'qitishga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlarini baholash mezonlari "Country Study" moduli uchun yaratilgan o'quv konsepsiyasini diskursiv muloqot modeliga moslashtirish, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiruvchi krossmadaniy kontentdan foydalanish hamda tarkibiga ijtimoiy-kognitiv fikrlash, semantik strukturalash va pragmatik moslashuv komponentlarini kognitiv interfaollik va kontekstual reprezentatsiya asosida funksional jihatdan integratsiya qilish orqali takomillashtirilganligi haqidagi tadqiqot natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Kengashining Erasmus+ dasturi asosida amalga oshirilgan 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 11-avgustdagi 2258-son ma'lumotnomasi). Natijada taqdim etilgan materiallar loyiha platformasini takomillashtirish va ingliz tilida mashq va topshiriqlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

lingvodidaktik komponentlar orqali predmetli til muhitini virtual tarzda konstruksiyalovchi, madaniyatlararo mediatsiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi elektron o'quv vositasi asosida, xorijiy tilni real kommunikativ makon sifatida anglash imkoniyatini ta'minlaydigan kognitiv-multimodal modellashtirish texnologiyalari takomillashtirilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining "Samarqand sadosi" dasturi ssenariysida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-avgustdagi 01–12/299-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarga ingliz tili bo'yicha yangi avlod darsliklarini muvaffaqiyatli ishlab chiqish tamoyillari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi: dissertatsiyaning ilmiy natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida taqdim etilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy maqola va 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron veb-ilova, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 11 ta maqola shundan 5 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 171 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan bo'lib, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida chet til bo‘yicha kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv qo‘llanmaning ishlash mexanizmlari, uni an’anaviy va elektron shaklda ishlab chiqish tamoyillari batafsil o‘rganilgan, hamda uni yaratishda sinergetik yondashuv xususiyatlari ochib berilgan.

Zamonaviy yoshlar hayotni idrok etish, bilim olish va ta’lim maqsadlarida ko‘p jihatdan farq qiladi. Shu masalada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 6-may kuni “Chet tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Mirziyoyev xorijiy tillar bo‘yicha xalqaro standartlarga asoslangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligini ta’kidladi⁶.

Hozirgi vaqtda axborotni qayta ishlash va idrok etishdagi o‘zgarishlar, barcha o‘quv jarayonlarining axborot muhiti tomonidan o‘zlashtirilishi, o‘quv motivatsiyasi muammolari, shuningdek, talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish zarurati kabi pedagogik jarayonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘quv jarayonining innovatsion mezonlarga, o‘qitish metodlari va usullarining foydalaniladigan darsliklarga barcha xususiyatlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

O‘quv jarayonini yangicha tashkil etish uchun yangi xorijiy namunalar bo‘yicha yaratilgan bir qator darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va elektron materiallarning mazmuni o‘rganib chiqilib, yangi avlod darsliklarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Til o‘qitish metodikasida, ayniqsa, yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishda “mexanizmlar” tushunchasi o‘quv materiallarini yaratish, amalga oshirish va takomillashtirishni ta’minlovchi jarayonlar va elementlar majmuasini qamrab oladi. Bu mexanizmlar o‘quv manbalarining sifati va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ham nazariy, ham amaliy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bular o‘quv material konsepsiyasining asosiy tamoyillar va yondashuvlari bo‘lib, o‘quv qo‘llanmalarining tuzilishi va mazmunini belgilaydi, kommunikativ yondashuv, loyiha asosida o‘qitish, raqamli texnologiyalar integratsiyasi va boshqa zamonaviy texnikalar kabi pedagogik strategiyalarni tanlash bo‘lib, o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va qayta ko‘rib chiqish bosqichlarini qamrab oladi. Ichki va tashqi ekspertiza, sinov va materiallarni ko‘rib chiqish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish mexanizmlari samarali, dolzarb va moslashtirilgan ta’lim resurslarini yaratish uchun uslubiy, pedagogik, texnologik va tashkiliy komponentlar birgalikda ishlaydigan integral tizimni ifodalaydi.

Til o‘qitish fakultetlari talabalariga ingliz tilini asosiy til sifatida o‘rgatish uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq aniq muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Unda o‘quv rejaning o‘ziga xos xususiyatlari, talabalarining til bilimi va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar, hamda ushbu ta’lim dasturi doirasida o‘qitiladigan

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. Kirish rejimi: <https://gov.uz/ru/news/view/30790>. [Murojaat etilgan sana: 19.05.2025].

fanlarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Darslik mazmunining ham o'quv standartlariga, ham muayyan ta'lim muassasasi voqeligiga mos kelishi muhim, bu uning amaliy ahamiyatini, ta'lim maqsad va vazifalariga muvofiqligini ta'minlaydi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, chet tilidagi darsliklar va o'quv qo'llanmalarining funksiyalar tizimi ko'rib chiqildi va asosiy funksiyalar sifatida informativ funksiya, boshqaruv funksiya, kommunikativ funksiya, rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi funksiya va o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tarbiyalash funksiyalari aniqlandi (1-rasm). Ko'rib chiqilgan barcha funksiyalar darslik va o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda hisobga olinib, rejalashtirilgan natijalarning kelajakdagi o'quv jarayoni bilan bog'liqligini asoslash va tushunishga imkon beradi.



1-rasm. Chet tilidagi o'quv qo'llanmalarining funksiyalari tizimi

Zamonaviy oliy ta'lim talablari asosida o'quv adabiyotlarini moslashtirish zaruratidan kelib chiqib, ushbu tadqiqot doirasida intersub'yektiv idrok va epistemologik integratsiyaga asoslangan besh komponentli funksional-integral tuzilmaning samaradorligi asoslab berildi. Ushbu tuzilma talabalarning ongida refleksiv va ijtimoiy-faol tafakkur mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda xorijiy tilni o'qitishda sinergetik asosda uyg'unlashgan multimodal o'quv modelining ichki tuzilmasi qisqa va aniq belgilandi: kognitiv, emotsional va kommunikativ sistemalar yagona didaktik mexanizm sifatida modellashtirildi. Model strukturaviy-kontekstual integratsiya, moslashuvchanlik va kognitiv interfaollik tamoyillariga tayangan holda reflektiv hamda ijtimoiy faol tafakkurni qo'llab-quvvatlaydi. "Mamlakatshunoslik" asosidagi elektron vosita esa tilni kommunikativ makon sifatida anglashni kuchaytirib, bosqichma-bosqich madaniyatlararo mediatsiya va mustaqil kognitiv interfaollikni rag'batlantiradi.

O'zbekistonlik olim G.Yu.Shamuratovning fikricha, "sinergetik yondashuv bir martalik pedagogik usul emas, u bir dars doirasidan tashqariga chiqadi va butun ta'lim jarayoni va ta'lim tizimini qamrab oladi, u boshqa usullar bilan moslasha oladi, o'qitishning an'anaviy shakli yutuqlaridan foydalanish va uni to'ldirish zarur. Ta'lim jarayonida sinergetik pedagogik texnologiyalar ko'p qirralilikni

ta'minlashning kafolati hisoblanadi"⁷. Tadqiqot doirasida qo'llanilgan sinergetik yondashuv, o'quv jarayonida o'z-o'zini tashkil qilish, o'zaro ta'sir qilish va izchil bo'lmagan holda murakkab, dinamik tizim sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv o'z e'tiborini individual ta'lim trayektoriyalariga, shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi tashkil etishiga, shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'siriga qaratadi.

O'z-o'zini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan sinergetik yondashuv doirasida talaba mustaqil ravishda axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanish orqali kasbiy muammolarni samarali hal qila oladigan o'z-o'zini rivojlantiradigan intellektual va kognitiv subyektga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, darslik va o'quv qo'llanmalar o'quvchining ijodiy, kognitiv va kommunikativ faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu strategik asoslar negizida madaniy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan multimodal o'quv modeli ishlab chiqildi. Ushbu model strukturaviy-kontekstual o'zaro integratsiya, moslashuvchanlik va kognitiv interfaollikning didaktik imkoniyatlari orqali integral pedagogik texnologiyalarning sinergetik uyg'unlashuvini ta'minlaydi. O'quv jarayoni faol va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, shu jumladan haqiqiy kasbiy muammolarni hal qilish uchun bilimlarni qo'llash, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, ular orasida interfaol usullar va kompyuter texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Til o'qitish fakulteti talabalari uchun ham bosma, ham elektron darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishda o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos talab va tamoyillarini hisobga olish zarur. Shu bilan birga, o'qitishning umumiy didaktik va uslubiy tamoyillarini, umumiy didaktik tamoyillar – ko'rgazmalilik, ilmiylik, qulaylik, onglilik va faollik, tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyotning aloqadorlik tamoyillarini farqlash juda muhimdir.

Shuningdek, tadqiqotda to'rtta asosiy: kommunikativ maqsadga qaratilganlik, ona tilining xususiyatlarini hisobga olish tamoyili, muloqot qobiliyatlarini integrativ rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy yo'nalish tamoyillari o'rganib chiqildi (2-rasm). Ishda e'tibor berilayotgan chet tillarni o'qitishning sinergetik yondashuvi o'z-o'zini tashkil etish, izchillik va o'zaro ta'sir tamoyillariga asoslanib, talabalar tomonidan tilni muvaffaqiyatli o'rganishga xizmat qiluvchi zamonaviy usullar taklif etilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida o'qitishning kompetensiyaviy yondashuvi joriy etilishi ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, shuningdek, umuman ta'lim tizimidagi mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv sharoitida ta'lim mazmuni nafaqat nazariy bilimlarga, balki samarali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan yangi maqsadlarga bo'lgan ehtiyojni yaqqol namoyon qildi.

⁷ Шамуратова Г.Ю. Синергетический подход как форма многовариантности в образовательном процессе. – Текст: непосредственный. Молодой ученый: международный научный журнал. «Издательство "Молодой ученый», о-во с ограниченной ответственностью. – Чита: Молодой ученый, 2009 – (Чита). – Журн. вкл. в РИНЦ, 2017. – № 22 (156). – С. 203-205.



2-rasm. Darslik va o'quv qo'llanmalarining asosiy didaktik va uslubiy tamoyillari

Kasbiy yo'naltirilgan chet tilni o'qitishning maqsadlari va mazmuni integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan bo'lib, u nafaqat til va kasbiy sohadagi bilimlarni, balki kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli munosabatlarga yordam beradigan madaniyatlararo mazmunda ham, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarni o'z ichiga olgan kommunikativ til kompetensiyasini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy xalqaro professional makonda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiya va axborot texnologiyalari kompetensiyasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish shaxsning professional muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi, globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida muammolarni hal qilish qobiliyatini va adekvat o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ingliz tilini o'qitishga yo'naltirilgan yangi avlod o'quv materiallarining tuzilishi va mazmunida o'z ifodasini topadigan mazmun va o'qitish texnologiyalarini tegishli tarzda moslashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning ushbu bobida talabalarga chet tilini o'rgatishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga qaratilgan o'quv qo'llanmalarining asosiy, umumiy va universal fazilatlarini shakllantirish, shuningdek, talabalarining chet tilda kommunikativ va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq yondashuvini amalga oshirish edi.

Dissertatsiyasining **"Ingliz tilida darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va samaradorligini sinovdan o'tkazish"** deb nomlangan II bobida ingliz tilidagi o'quv dastur va o'quv adabiyotlarning tahlili, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va multimedia vositalarini yaratishning bosqichlari, til o'qitish fakulteti talabalari uchun mashqlar va topshiriqlarni ishlab chiqishning metodik xususiyatlari tavsiflangan.

Kundalik hayotimizga kirib kelgan ilg'or raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari xalqlarning global integratsiyalashuv jarayonini tubdan

o'zgartirdi. Shubhasiz, ta'limda ingliz tilini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lishi lozim. So'nggi paytlarda oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishning kompleks tizimi yaratildi. U barkamol, yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan yoshlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining keyingi strategiyasiga ham yo'naltirilgan⁸.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 4-avgustdagi 418-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi) va xorijiy til va adabiyoti (ta'lim sohasiga qo'yiladigan malaka talablari) mutaxassisliklari bo'yicha Davlat ta'lim standartida (DTS) bakalavr darajasini olish uchun umumiy talablar haqida ma'lumotlar mavjud. Bu talablar bakalavr darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar, bakalavr darajasini olish uchun haqiqiy malaka talablari, kasbiy mahorat va tashkiliy-boshqaruv faoliyati, hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga qo'yiladigan talablardan iborat.

Samarqand davlat chet tillar instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Buxoro davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutida Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi) va xorijiy til va adabiyot: ingliz tili yo'nalishlari bo'yicha talabalarga ta'lim berishda foydalaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalar tahlili mavjud kamchiliklar va afzalliklarni ko'rsatdi.

Biz tahlil qilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda til ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ko'nikmalar integratsiyasiga e'tibor berilmagan, talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi mashq va vazifalar uchramaydi. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarining birortasida ham o'qituvchi uchun darslarni o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berilmagan va ilova qilinmagan, sinfdan tashqari (mustaqil ravishda) darslikdan foydalanishni ta'minlaydigan qo'shimcha axborotlar taqdim etilmagan.

Shuningdek, ushbu bobda talabalar bilim olish jarayonini optimallashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va multimedia vositalarini ishlab chiqish bosqichlarini shakllantirish yuzasidan ma'lumotlar berilgan.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash to'g'risida"gi 816-son qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi ta'limning barcha bosqichlarida chet tilni o'qitishning maqsadi kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda ko'p madaniyatli dunyoda ishlash uchun chet tilda talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat"⁹.

Chet tilini o'qitish bo'yicha metodik ko'rsatmalarga ko'ra, dasturlar va o'quv materiallarining ko'plab modellari mavjud. Ushbu modellarning har birida kelajakdagi faoliyat uchun belgilangan maqsadlarga erishish uchun qator talablar nazarda tutilgan.

⁸ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi 816-son qarori.

Uslubiy nashrlarni tahlil qilish natijalari va o'quv adabiyotlarini yaratish tajribasiga asoslanib, ham an'anaviy, ham elektron darslik/o'quv qo'llanmani ishlab chiqishning quyidagi bosqichlarini taklif qilish mumkin (3-rasm):



3-rasm. Darslik va o'quv qo'llanmani ishlab chiqish bosqichlari

Ishning birinchi bosqichi, dolzarb vazifa *ta'lim ehtiyojlarini* tahlil qilishdan iborat, buning uchun ushbu o'quv qo'llanma bajarishi uchun o'ylangan juz'iy vazifalarni aniqlash kerak bo'ladi. Bundan keyin, asosiy ma'lumotlar aniqlangandan so'ng, loyihalash strategiyasi, ya'ni *o'quv qo'llanmaning konseptual strategiyasi yaratilishi* kerak. Ushbu bosqich qo'llanmada amalga oshirilishi kerak bo'lgan o'quv mazmunining tarkibiy qismlari, ularni o'quv materialida taqdim etish usullari, hamda uni o'zlashtirish usullarini rejalashtirish haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, o'z ijodiy ishlanmalarini tizimlashtirish va tartibga solish jarayonida o'qituvchi asosiy didaktik va uslubiy nazariyaga, o'quv materialini o'zlashtirish psixologiyasiga, muayyan lingvistik konsepsiyaga rioya qilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, bu bosqichda o'qituvchi tomonidan tanlagan ta'limga yondashuvni amalga oshirish yo'llari rejalashtirilishi kerak.

Rejalashtirilgan konsepsiya bo'yicha *kurs mazmunini ishlab chiqish bosqichi* topshiriqlar uchun o'quv materialini tanlash va uslubiy tashkil qilishni talab qiladi. Bular matnlar, til materiali, mashqlar va topshiriqlar tizimidir.

Samaradorlikni baholash bosqichi ekspert baholashlarini va o'quv qo'llanmani sinovdan o'tkazish tahlilini o'z ichiga oladi.

Bir qator mahalliy va xorijiy nashrlarni har tomonlama ko'rib chiqish va tahlil qilish, hamda, O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish/o'rganish mazmunini hisobga olgan holda, o'quv adabiyotlarining turli aspektlarini baholashning asosiy mezonlari ishlab takomillashtirildi. Takomillashtirish «Country Study» modulining o'quv konsepsiyasini diskursiv muloqot modeli hamda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiruvchi kross-madaniy mazmun bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshirildi. Mezonlar, shuningdek, ijtimoiy-kognitiv tafakkur, semantik tuzilmalashtirish va pragmatik moslashuv komponentlarining funksional integratsiyasini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon kognitiv interaktivlik va kontekstual reprezentatsiyaga asoslanadi. Mazkur mezonlar asosida o'quv qo'llanmalar

quyidagi besh asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholanadi: I. amaliy xususiyatlari; II. ko‘nikmalar; III. mashqlar va vazifalar; IV. pedagogik tahlil; V. kasbiy mutanosiblik.

Chet tilida o‘quv qo‘llanmalarini yaratish jarayonida tuzilgan mazmuniy o‘zlashtirish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish muammosi juda muhim bo‘ladi. Til o‘qitish fakultetlari talabalari uchun darsliklarni ishlab chiqishda til materialini tanlashning ayrim mezonlari belgilab olindi. Ulardan asosiylari: dolzarbligi va ta’lim standartlariga muvofiqligi; aloqa qiymati; materialning murakkablik darajasini hisobga olgan holda: turli xil manbalar; mavzu yo‘nalishiga muvofiqligi; motivatsion qo‘llab-quvvatlash sifatida belgilab olindi. Yuqoridagi mezonlarni inobatga olgan holda darsliklarni ishlab chiqish til o‘qitish fakulteti talabalarining samarali o‘zlashtirishlariga xizmat qiladigan yuqori sifatli lingvistik material yaratish imkonini beradi.

Chet tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning eng muhim sharti og‘zaki va yozma nutqda, nutq faoliyatining mahsuldor va retseptiv turlarida ushbu kompetensiyani yaratishga qaratilgan mashqlar va vazifalar majmuasini ishlab chiqishdir.

Chet tilini o‘qitishda mashqlarning turli tipologiyalari mavjud bo‘lib, ular turli mezon va asoslarga ko‘ra tasniflanadi. Masalan, J.Jalilova chet tillarni o‘qitishda mashqlar tipologiyasiga yondashuvlarni quyidagicha tasniflaydi: lingvistik, psixologik, psixolingvistik va uslubiy¹⁰. Chet tilni o‘rgatishda mashqlarning eng maqbul retseptiv, reproduktiv va produktiv tasnifi mavjud bo‘lib, metodistlar ushbu uch tur o‘rtasida aniq farqlar borligini ta’kidlashganlar.

Chet tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning asosiy sharti sifatida og‘zaki va yozma nutqda, nutq faoliyatining mahsuldor va retseptiv turlarida ushbu kompetensiyani yaratishga qaratilgan mashqlar va vazifalar majmuasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Tilshunoslik, ijtimoiy-lingvistik, pragmatik va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish bo‘yicha mashq va topshiriqlarni “Country study” o‘quv qo‘llanmasida to‘rtta asosiy ko‘nikma – gapirish, o‘qish, yozish va tinglashni hisobga olgan holda birlashtirish ko‘p qirrali ta’lim vositasini yaratish imkonini beradi. Ushbu yondashuv talabalarining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi, til va madaniyatni chuqur tushunishiga yordam beradi, shuningdek, ularni filologiya va chet tillarni o‘qitish sohasidagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Ushbu bobda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va topshiriqlarni “Mamlakatshunoslik” fanidan 2-kurs o‘quv qo‘llanmasiga kiritish mumkinligi ko‘rib chiqildi.

Shunday qilib, darslarda qo‘llaniladigan “Pre-While-Post” yondashuvi o‘quv materialini chuqur tushunish va muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradigan vazifalar va mashqlarni ishlab chiqishning uslubiy jihatdan asosli va maqsadli usuli ekanligini ta’kidlash joiz. Shuningdek, quyidagi ish bosqichlarini va har bir bosqich uchun mashqlar va vazifalarni auditoriya va auditoriyadan tashqari turlarga ajratish tavsiya etiladi:

¹⁰ Жалилова Л.Ж. Практическая методика обучения иностранному языку: учебное пособие. Л.Ж. Жалилова. – Бухара: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona, 2023. – 53 с.

matn bilan ishlashdan oldingi bosqich: bu bosqichdagi mashqlar matnni idrok etishda o'quvchilarning dastlabki bilimlarini shakllantirish, uni tushunishdagi semantik va lingvistik qiyinchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu bosqichda boshlang'ich bilimlarni faollashtirish, asosiy lug'at bilan tanishtirish, taxmin qilish va oldindan o'ylab ko'rish, madaniy mazmun bilan tanishish, talabalarning faolligi va qiziqishini oshirishga qaratilgan vazifalar va mashqlardan foydalanish taklif qilinadi;

matn bilan ishlash bosqichi, leksik va grammatik materialni mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Matnni batafsil tushunish, asosiy ma'lumotlarni tahlil qilish, kontekstda yangi lug'atdan foydalanish, madaniy tahlil, shuningdek, tanqidiy fikrlash va xulosalarga qaratilgan topshiriq va mashqlar taklif etiladi;

matn bilan ishlashdan keyingi bosqich, matn mazmunini aniqlashga, o'qilgan matnni tushunish darajasini va olingan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan. Ushbu bosqichning topshiriqlari va mashqlari talabalarga matn mazmunini umumlashtirish, qayta ishlash va muhokama qilish va mustahkamlash, shuningdek, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi. Bizga munozaralar va mulohazalarni, qiyosiy va tahliliy topshiriqlarni, bahslarni, insho yozishni, interfaol va o'yin vazifalar taklif qilinadi.

o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish, izlash va kerakli ma'lumotlarni ajratib olishni o'rgatishga qaratilgan ijodiy bosqich. Bu bosqichni evristik deb ham atash mumkin. Ushbu bosqichdagi mashqlar va topshiriqlar talaba oldida nostandart yechimlarni izlash, qo'yilgan savollarga mustaqil ravishda javob topish va ijodiy amalga oshirish imkoniyatini qo'yadi. Ushbu bosqichda talabalar o'rganilayotgan material bo'yicha o'z tushunchalarini turli ijodiy shakllar, masalan, loyihalar, taqdimotlar va tadqiqot topshiriqlari yaratish va hokazolar orqali ifodalashlari mumkin.

Shunday qilib, mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish muammosi muallif harakatlarining mazmun nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

III bob "Til o'qitish fakultetlari (ingliz tili) talabalariga ingliz tilini o'qitishda yangi avlod o'quv qo'llanmasi aprobatsiyasi bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish" deya nomlanib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari, natijalarning sifat va miqdor ko'rsatkichlari tahlili berilgan.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarning amaliy qo'llanilishi va samaradorligini, hamda, ularning didaktik ta'minlanishini aniqlash maqsadida 2021–2022 va 2022–2023-o'quv yillarida belgilangan yo'nalishlarda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Eksperimental tadqiqot dissertatsiyaning kirish qismida bayon etilgan g'oyalarni real sharoitlarda sinab ko'rish va ishga samarali ta'sir ko'rsatadigan omillar asosida yangi ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini olib borishdan maqsad:

ingliz tilini o'qitish bo'yicha o'quv adabiyotlari sohasida mavjud qonuniyatlar va muammolar, xususan, darsliklar va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish, haqida ma'lumotlar olish maqsadida tadqiqot mavzusi bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'quv-uslubiy majmualarni struktur va konseptual tahlil qilish;

til o'qitish fakultetlari talabalariga "Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi)" va "Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili" yo'nalishlari bo'yicha yangi avlod o'quv qo'llanmasi "Country study" fani bo'yicha elektron veb-ilovadan foydalangan holda o'qitishning samaradorlik darajasini diagnostika qilish;

tanlangan materialni amaliyotga tatbiq etish va ilgari mavjud bo'lmagan tomonlarni qo'shish, hamda takliflar qanchalik samarali bo'lganligi va ushbu yo'nalishning o'quv dasturiga mos kelganligini aniqlash;

talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda an'anaviy va innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan o'quv adabiyotlari samaradorligini aniqlashdan iboratdir.

Samarqand davlat chet tillar instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Buxoro davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti tajriba maydonlari sifatida belgilandi. Eksperimental tadqiqot 3 bosqichda amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan "Xorijiy til va adabiyoti (tillari)" hamda "Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)" yo'nalishlari tasdiqlandi, ularda umumiy kasbiy fanlar bo'yicha tahsil olayotgan talabalar o'rtasida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Eksperimental tadqiqot uni tashkil etishning ilmiy-uslubiy talablariga muvofiq amalga oshirildi. Eksperimental sinovlar davomida tanlangan oliy o'quv yurtlarining 2-kurs talabalaridan nazorat va tajriba guruhlarini tuzilib, ular yordamida eksperimental sinovlar o'tkazildi.

Xorijiy tillar fakulteti talabalariga ingliz tilini o'qitish bo'yicha o'quv rejalari, ish dasturlari, o'quv va kalendar rejalari, darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalari o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Anketa so'rov usuli o'qituvchilarning tajriba to'g'risidagi fikrlarini to'plash uchun qo'llanildi, o'qitish sifatini maqsadli oshirish, shuningdek, o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishda bilim va tajribani hisobga olish maqsadida ingliz tili va boshqa mutaxassisliklarni o'rgatuvchi o'qituvchilar o'rtasida suhbat va so'rovnomalar o'tkazildi.

Tadqiqot jarayonida oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari o'rtasida o'qituvchilarning ish tajribasi, faoliyat sohasi yoki mutaxassisligi, hamda o'qitishda foydalanilgan didaktik materiallardan shakllangan 8 ta savoldan iborat so'rovnoma o'tkazildi. Dissertatsiyada professor-o'qituvchilarning javoblari hamda ularning foizi ko'rsatilgan.

Yordamchi usullardan ikkinchisi testlar vositasida sinovdan o'tkazish bo'lib, bu bir vaqtning o'zida butun guruhni sinab ko'rish imkonini berdi. Test sinovi jarayonida nazorat va eksperimental guruhlardagi talabalar uchun bir xil sharoitlar yaratildi, ularga bir xil hajm va murakkablikdagi materiallar taqdim etildi. Eksperimental test sinovi tajriba maydonlari sifatida belgilangan oliy o'quv yurtlarining tegishli yo'nalishlari 2-kurs talabalarini o'rtasida o'tkazildi. Test sinovi talabalarning kommunikativ kompetensiya va uning tarkibiy qismlari haqidagi bilimlarini aniqlash uchun taqdim etilgan savollarni o'z ichiga oldi. Test sinovining maqsadi, talabalarning berilgan muammoni qanchalik to'g'ri yechishlarini aniqlash edi. Olingan ma'lumotlar talabalarga kommunikativ kompetensiyani shakllantiradigan bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini namoyish etishga va tadqiqot natijalarini umumlashtirishga yordam berdi.

Eksperimental tadqiqot jarayoni biz taklif qilayotgan uslubiy ta'minotni joriy qilishdan oldin talabalarning bilim darajasini aniqlash maqsadida ikki bosqichda (dastlabki va yakuniy) amalga oshirildi. Yuqorida aytib o'tilganidek, test sinovlari oliy o'quv yurtlarining 2-kurs talabalari o'rtasida o'tkazildi (1-jadval):

1-jadval.

Tajriba-sinov maydoni ishtirokchilari soni

Eksperiment o'tkazish maydonlari	Dastlabki bosqich		Yakuniy bosqich	
	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	37	36	37	36
Samarqand davlat chet tillar instituti	39	41	39	41
Buxoro davlat universiteti	19	19	19	19
Buxoro davlat pedagogika instituti	15	15	15	15
Jami	110	111	110	111

Nazorat guruhidagi 110 nafar talaba va tajriba-sinov guruhidagi 111 nafar talaba tajriba maydonlari sifatida belgilangan oliy o'quv yurtlaridan test o'tkazishning dastlabki eksperiment talabi bo'yicha tanlab olindi.


Eksperimental tadqiqot jarayoniga tajriba o'tkazish maydonlari sifatida tanlangan oliy o'quv yurtlarining 2-kurs talabalari jalb etildi. Nazorat guruhidan 110 nafar va tajriba-sinov guruhdan 111 nafar talaba ishtirok etgan diagnostik test natijalariga ko'ra quyidagi natijalarni kuzatish mumkin: nazorat guruhlarida 5 nafar talaba "a'lo", 26 nafari "yaxshi", 56 nafar talaba "qoniqarli" baho olgan, 23 nafar talaba esa topshiriqni bajarmagan va "qoniqarsiz" baho olgan; Tajriba guruhidagi 6 nafar talaba "a'lo", 26 nafari "yaxshi", 56 nafari "qoniqarli", 19 nafari esa "qoniqarsiz" baholangan (2-jadval):

2-jadval.

Dastlabki test natijalari

	Eksperiment o'tkazish maydonlari	Nazorat guruhi					Tajriba guruhi				
		Talabalarining umumiy soni	a'lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz	Talabalarining umumiy soni	a'lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
O'zDJTU	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	18	1	4	11	2	19	2	5	10	2
	Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)	19	1	5	9	3	17	1	4	10	2
SamDCh TI	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	18	1	5	10	2	20	2	6	10	2
	Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)	21	1	6	11	3	21	1	5	12	3
Bux DU	Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)	19	1	4	10	4	19	1	4	10	3
BD PI	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	15	0	2	6	7	15	0	2	7	6
	Jami:	110	5	26	58	21	111	7	26	59	19

Ushbu ma'lumotlarga asosanib, nazorat va eksperimental guruhlardagi ko'rsatkichlarning dastlabki natijalari deyarli bir xil degan xulosaga kelish mumkin. (4-rasm):



4-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarida dastlabki natijalar

Eksperimental o'qitish 2-kurs bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha 3-4-semestrlarda o'tkazildi. Bu bosqichda "Country study" o'quv qo'llanmasi materiallari asosida veb-ilova, o'qish, yozish, gapirish va tinglash ko'nikmalarini integratsiyalashuvini hisobga olgan holda samarali mashqlar eksperimental guruhlar mashg'ulotlarida o'tkazildi. Ushbu bosqich quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

eksperimental guruhda "Mamlakatshunoslik" fanidan yaratilgan veb-ilovadan foydalangan holda eksperimental mashg'ulotlar o'tkazish;

taklif qilinayotgan mashqlar va topshiriqlarning uslubiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tekshirish;

elektron veb-ilovadan va yangi avlod darsligidan foydalangan holda eksperimental o'qitishning ikkinchi bosqichi natijalari bo'yicha dastlabki xulosalarni shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Country Study" o'quv qo'llanmasida keltirilgan ta'lim samaradorligiga erishishda va til o'qitish fakultetlari talabalarini chet tilini o'rganishga rag'batlantirishda muhim bo'lgan chet tilining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan muayyan topshiriqlar to'plami, ingliz tilini o'rganishda o'qish, gapirish, tinglash va yozish ko'nikmalarini samarali shakllantirishni amalga oshirish imkonini berdi. Shuningdek, o'qituvchining chet tili materialini o'zlashtirish sifatini nazorat qilishini va talabaning o'z-o'zini nazorat qilishini tashkil qilishga muvaffaq bo'lindi. Bu nafaqat nazorat, balki o'qitish funksiyasini ham bajarishga imkon berdi.

Yaratilgan o'quv qo'llanma hamda unga ilova sifatida ishlab chiqilgan veb-ilova yordamida, kognitiv-multimodal modellashirishning takomillashtirilgan

texnologiyalari asosida talabalarining chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantiruvchi ko'nikma va malakalari baholandi. Mazkur texnologiyalar chet tilini haqiqiy kommunikativ makon sifatida anglashni ta'minlaydi hamda lingvodidaktik komponentlar orqali predmetga oid til muhitini virtual tarzda modellashtiradi, bu esa bosqichma-bosqich madaniyatlararo mediatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, ushbu yondashuv oliy ta'lim tizimida chet tili kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda baholash va takomillashtirish imkonini beradi.

Eksperiment natijalarining matematik statistik tahlilidan so'ng talabalarining motivatsiyasi darajasi va o'quv qo'llanmada ishlab chiqilgan topshiriq va mashqlar samaradorligi obyektivlikning yetarli foizi bilan baholandi.

Ushbu tajribaning yakuniy bosqichida talabalar yakuniy test sinovidan o'tkazildi. "Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi)" hamda "Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili" yo'nalishlarida tahsil olayotgan tajriba maydonlaridagi 2-kurs talabalarining test sinovlari natijalari quyidagicha bo'ldi (3-jadval):


3-jadval.

Tajriba-sinov ishtirokchilarining yakuniy natijalari

	Eksperiment o'tkazish maydonlari	Nazorat guruhi					Tajriba guruhi				
		Talabalarining umumiy soni	a'lo	Yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz	Talabalarining umumiy soni	a'lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
O'zDJTU	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	18	4	5	8	1	19	8	7	3	1
	Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)	19	2	7	8	2	17	7	7	2	1
SamDChTI	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	18	4	7	6	1	20	7	9	3	1
	Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)	21	5	8	8	0	21	9	9	2	1
BuxDU	Chet tili va adabiyoti (ingliz tili)	19	3	7	8	1	19	6	9	3	1
BDPI	Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	15	1	7	5	2	15	5	6	3	1
	Jami	110	19	41	43	7	111	42	47	16	6

Nazorat va eksperimental guruhlarining o'rtacha baholarini tahlil qilish va taqqoslash, o'tkazilgan pedagogik eksperimentda tajriba guruhi natijalarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 13% ga o'sganligi, tajriba-sinovning ijobiy natija ko'rsatganligini asosladi. Kuzatilgan o'sish, ayniqsa, modelning interaktiv va

kognitiv komponentlari hisobiga talabalarda mustaqil fikrlash, pragmatik moslashuv va madaniyatlararo moslashuv darajalarining ortganini ko'rsatdi, bu esa o'quv topshiriqlari murakkabligining bosqichma-bosqich oshirilishida ham ijobiy dinamikani saqlab qoldi (5-rasm):



5-rasm. Dastlabki va yakuniy test natijalari

Tajriba-sinov ishi davomida olingan talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari ma'lumotlariga ko'ra, o'rganilayotgan muammoga oid ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalar va takliflar o'qitish sifatini oshirish va ijobiy natijaga erishish imkonini berdi. Tajriba-sinov ishining ilmiy gipotezasida ilgari surilgan g'oyani sinab ko'rib, yuqoridagi ko'rsatkichlarni real sharoitda sinab ko'rishga muvaffaq bo'lindi.

Yuqorida fikrlarga asoslanib, til o'qitish fakulteti talabalarining chet tilning kommunikativ va kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi darsliklar va sinergetik yondashuv asosida ishlab chiqilgan yangi avlod o'quv qo'llanmalari orqali oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Chet tillarni o'qitish jarayonini takomillashtirishda asosiy rol o'ynaydigan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalashuvi, motivatsiyani, faollikni oshirish, o'rganish sifati va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etish.

2. Umumiy didaktik va uslubiy tamoyillarni, shuningdek, til o'rgatishda sinergetik yondashuvda asosiy yo'nalish sifatida ta'kidlangan o'z-o'zini boshqarish, izchil va o'zaro ta'sir tamoyillarini hisobga olgan holda darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish.

3. O'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini rag'batlantirish, bu nafaqat materialni chuqurroq o'zlashtirishga, balki tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalari va o'rganishga motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

4. Talabalarining auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil) ishlariga qaratilgan interfaol va ko'p qirrali vazifalar.

5. Tilni chuqurroq anglash va undan foydalanishga xizmat qiluvchi nafaqat lingvistik, balki madaniy, ijtimoiy va kasbiy jihatlarni ham o'z ichiga olgan til ko'nikmalarini o'rgatishda kompleks yondashuvni shakllantirish.

Yuqoridagi ma'lumotlar va nazariy tahlillar asosida bugungi kunda til o'qitish fakultetlari talabalari uchun o'quv jarayonida foydalaniladigan yangi avlod darsliklarini yaratish zarurati dolzarb ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Til o'qitish fakulteti talabalari uchun ingliz tilidagi yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratish mexanizmlarini ishlab chiqish muammosi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oliy ta'limdagi yangi tendensiyalar, bir tomondan, o'quv jarayonini, kadrlar tayyorlashning tashkiliy shakllarini qayta ko'rib chiqishga, shuningdek, turli xil mashqlarni ishlab chiqish va joriy etishga, yangi avlod darsligi o'quv qo'llanmalarini modernizatsiya qilish yo'llarini izlashga olib keladi. Tajriba davomida biz tanlagan til yo'nalishlari professor-o'qituvchilari va talabalarining javoblariga ko'ra, bugungi kunda ingliz tili bo'yicha darsliklarga ehtiyoj katta.

2. Ingliz tilidagi yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishning asosiy strategik asoslari umumdidaktik va metodik ta'lim tamoyillariga tayanadi. Tadqiqot kontekstida madaniy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan multimodal o'quv modeli ishlab chiqildi. Ushbu model integral pedagogik texnologiyalarning sinergetik uyg'unlashuvi asosida yaratilgan bo'lib, strukturaviy-kontekstual o'zaro integratsiya, moslashuvchanlik va kognitiv interfaollikni ta'minlaydi.

3. Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmunida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Chet tillarini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish, o'z navbatida, til sohasidagi bilimlarni, shuningdek, madaniyatlararo, hamda o'zaro munosabatlarga yordam beruvchi ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvga asoslanadi. Ushbu jarayonning asosiy elementi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarni o'z ichiga olgan kommunikativ til kompetensiyasini shakllantirishdir. Shu bilan birga, xalqaro professional muhitda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan professional va axborot texnologiyalari kompetensiyalari muhim jihatlardir.

4. Ingliz tili o'qitish fakultetlarining o'quv adabiyotlarini tahlil qilish talabalarida chet tilning kommunikativ, sotsiolingvistik, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarini egallashini nazarda tutadi. Chet tilini, ayniqsa, ingliz tilini asosiy til sifatida o'qitishda foydalaniladigan o'quv adabiyotlarini yaratishda chet tili darsliklarini moslashtirish va ikki madaniyatni qiyoslovchi materiallardan foydalanish, milliy mentalitet, ma'naviyat, davlat va jamiyat mafkurasini tarbiyalash zarur. Tahlil qilinayotgan deyarli barcha darslik va o'quv qo'llanmalarda til ko'nikmalarini rivojlantirishda integratsiyalashuvga e'tibor berilmagan. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi vazifalar mavjud emas. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarda darslarni tashkil etish bo'yicha qo'llanma mavjud emas, darslikda auditoriyadan tashqari (mustaqil ravishda) foydalanishni ko'zda tutuvchi axborot ta'minoti mavjud emas.

5. Til o'qitishga yo'naltirilgan o'quv materiallarini baholash mezonlari takomillashtirildi. Mazkur takomillashtirish "Country Study" modulining o'quv konsepsiyasini diskursiv muloqot modeliga moslashtirish, shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiruvchi kross-madaniy kontentdan foydalanish orqali amalga oshirildi. Baholash mezonlariga ijtimoiy-kognitiv tafakkur, semantik strukturalash va pragmatik moslashuv komponentlarining kognitiv interfaollik va kontekstual reprezentatsiya asosidagi funksional integratsiyasi ham kiritildi.

6. Ilmiy tadqiqot maqsadiga asoslanib, amaliy nuqtayi nazardan yangi avlod darsliklarini yaratish bosqichlari (o'quv qo'llanmaga bo'lgan ehtiyojni o'rganish va konseptual strategiyasini yaratish bosqichi, kurs mazmunini to'ldirish bosqichi, baholash va yakuniy tuzatish bosqichi) asoslandi, shuningdek, "Mamlakatshunoslik" fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan o'quv qo'llanma orqali til o'qitish fakultetlari talabalarining o'quv jarayonini qulay va samarali tashkil etish orqali talabalarining kommunikativ va sotsialingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan multimediali elektron qo'llanma yaratildi.

7. Chet tildagi o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishda mazmunni o'zlashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etish asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, til materialini tanlashning bir nechta asosiy mezonlari aniqlangan bo'lib, ular ta'lim standartlariga muvofiqligi, kommunikativ qiymati, materialning murakkablik darajasi, manbalarning xilma-xilligi, shuningdek, talabalar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, mavzu yo'nalishiga muvofiqligi kabi omillarni hisobga olishi kerak.

8. Chet tilda talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va uning asosiy sharti nutq faoliyatining barcha tomonlarini – og'zaki va yozma, shu jumladan mahsuldor va retseptiv turlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va topshiriqlar majmuasini yaratishdir. Bunday mashqlarni asosiy ko'nikmalar – gapirish, o'qish, yozish va tinglashni hisobga olgan holda mamlakatshunoslik darsligiga integratsiyalashuvi talabalarining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi va ularni chet tillarni o'qitish sohasidagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Biz taklif qilayotgan "Pre-While-Post" yondashuvi o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga qaratilgan o'rganish bosqichlaridan tuzilgan. Auditoriya va auditoriyadan tashqari vazifalarga bo'lingan mashqlar tizimi lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi, talabalarining har tomonlama professional muhitda tayyorlanishini ta'minlaydi.

9. Pedagogik eksperimental tadqiqot jarayonida o'quv adabiyotlari atroflicha tahlil qilindi, shuningdek, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutining 72 nafar professor-o'qituvchilari va 221 nafar talabalari o'rtasida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, til o'qitish fakultetlarining 2-kurs talabalari o'rtasida tajriba guruhida "Mamlakatshunoslik" darsligida ishlab chiqilgan topshiriq va mashqlar orqali chet tilining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish nazorat guruhidagiga nisbatan 13 foizga yuqori bo'ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

АШУРОВА НИГИНА АЛИМДЖАНОВНА

**МЕХАНИЗМЫ РАЗРАБОТКИ УЧЕБНИКОВ И УЧЕБНЫХ ПОСОБИЙ
НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Ташкент– 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2020.1.PhD/Ped 1333.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Тухтасинов Илхомжон Мадаминович доктор педагогических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Собирова Гулноза Садиковна доктор педагогических наук (DSc), доцент Аббасова Наргиза Кабиловна доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент
Ведущая организация:	Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекском государственном университете мировых языков (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года
Протокол реестра рассылки за № _____ от «_____» _____ 2025 года

Л.Т.Ахмедова
Председателя Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
педагогических наук, профессор

А.Б.Рахмонов
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
педагогических наук (DSc), доцент

К.Ш.Мурадкасимова
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор
педагогических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В результате происходящих сегодня в мире изменений, процессов глобализации и расширения межгосударственных торгово-экономических, научных и культурных связей одной из наиболее актуальных проблем является повышение качества образования в области подготовки специалистов различных сфер, а также улучшение качества учебников, научно-методических и учебных пособий, способствующих эффективному развитию учебного процесса на иностранном языке. Исследования, проведенные в мире, показывают, что при разработке учебников английского языка нового поколения важно уделять внимание индивидуальным образовательным траекториям. Разрабатываются адаптированные учебные материалы, соответствующие индивидуальным потребностям, способностям и темпу обучения каждого студента. Это способствует повышению эффективности обучения, активизации самостоятельного мышления учащихся и их вовлеченности в процесс изучения языка. Информатизация общества, инновационные подходы, внедряемые в систему образования, требуют применения новых методов модернизации учебных пособий, особенно учебной литературы, как основы эффективного и качественного образования. Для увеличения числа пользователей учебников, созданных на основе накопленного положительного зарубежного опыта, и их широкой популяризации в настоящее время функционируют организации Global book distribution organizations (Всемирная организация по распространению книг) и The International Book bank (Международный книжный банк).

В мире проводятся масштабные исследования по модернизации образовательного процесса, разработке учебников и учебных пособий нового поколения. Внедрение инновационных подходов в преподавании английского языка, разработка учебников нового поколения на основе использования мультимедийных и интерактивных ресурсов становится одной из актуальных задач современности. Исследования, проводимые рядом университетов по созданию учебников и учебных пособий, раздаточных материалов, имеют важное значение в этом направлении. В Национальном университете Сингапура (NUS), Университете Гумбольдта (Германия), Сорбоннском университете (Франция) и других ведущих университетах проводятся научные исследования по инновационным подходам, таким как интеграция цифровых технологий в разработку учебников английского языка, персонализированное обучение с использованием искусственного интеллекта, а также применение виртуальной и дополненной реальности в процессе обучения языку. При разработке учебников английского языка такими авторитетными издательствами, как Oxford University Press и Cambridge University Press, особое внимание уделяется коммуникативной методике, методам task-based learning (обучение на основе задач), геймификации и цифровому обучению. Исследования, проведенные Кембриджским университетом, показывают, что в процессе обучения английскому языку мобильные приложения,

адаптированные упражнения с помощью искусственного интеллекта и методы обучения в реальном жизненном контексте значительно повышают языковую компетенцию учащихся. Исследования, проводимые ведущими университетами мира, демонстрируют, что технологические подходы, психолингвистические исследования и интерактивные методы обучения приобретают приоритетное значение в разработке учебников и учебных пособий нового поколения на английском языке.

В нашей стране осуществляется ряд реформ по разработке учебников и пособий нового поколения и внедрению информационно-коммуникационных технологий в учебный процесс, а также развитию электронного обучения в целом. «В Республике Узбекистан назрела необходимость создания правовой базы совершенствования учебной литературы нового поколения»¹. Основная задача образования состоит в комплексном развитии личности, обеспечении передачи знаний, профессиональных навыков и ценностей, необходимых для успешной и гармоничной интеграции в общество. Образование должно способствовать становлению критического мышления, творческих способностей и культурного понимания. При этом цель высших образовательных учреждений – сделать образование отвечающим мировым стандартам, внедрить современные формы и методы обучения и совершенствовать учебную литературу, так как учебник является необходимым орудием, без которого невозможно получить глубокие разносторонние знания.

Представленная научная работа формулирует решение проблем, обозначенных в Законе Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637 «Об образовании», № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», № ПП-816 от 10 октября 2018 года «Об обеспечении высших образовательных учреждений учебной литературой», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», а также Указе Президента Республики Узбекистан № 60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и другим нормативно-правовым документам, связанным с данной областью деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Научное исследование выполнено в

¹ Видеоселекторное совещание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по вопросам совершенствования системы образования и воспитания, ускорения развития науки в стране от 30 октября 2020 года. Режим доступа: <https://president.uz/ru/lists/view/3924>. [Дата обращения: 14.04.2025].

пределах главного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы.

